

<b>Terms</b>	<b>Atamalar</b>	<b>Izoh</b>
Determinant of the quadratic matrice	Kvadrat matritsaning determinanti	Kvadrat matritsaning har bir satr va har bir ustunidan bittadan elementlar olib tuzilgan ko'paytmalarning algebraik yig'indisiga berilgan kvadrat matritsaning determinanti deyiladi.
Determinant of the n-ordered matrice	$n$ -tartibli kvadrat matritsa ning determinanti	$n$ -tartibli kvadrat matritsa $A = \begin{pmatrix} a_{11} & a_{12} & \dots & a_{1n} \\ a_{21} & a_{22} & \dots & a_{2n} \\ \dots & \dots & \dots & \dots \\ a_{n1} & a_{n2} & \dots & a_{nn} \end{pmatrix}$ ning determinanti deb $ A  = \sum_{\tau \in S_n} \text{sgn}(\tau) a_{1\tau(1)} \cdot \dots \cdot a_{n\tau(n)}$ ( $n!$ qo'shiluvchilardan iborat) yig'indiga aytiladi.
Determinant of the multiplication of quadratic matrices	Kvadrat matritsalar ko'paytmasining determinanti	Kvadrat matritsalar ko'paytmasining determinanti berilgan matritsalar determinantlari ko'paytmasiga teng.

Sub	Matritsaosti	$A = \begin{pmatrix} a_{11} & a_{12} & \dots & a_{1n} \\ a_{21} & a_{22} & \dots & a_{2n} \\ \dots & \dots & \dots & \dots \\ a_{m1} & a_{m2} & \dots & a_{mn} \end{pmatrix}$ matritsaning matritsaosti deb, uning qandaydir satr va ustunlarini o'chirishdan hosil bo'lgan matritsaga aytiladi.
k-ordered	Matritsaosti	k ta satr va k ta ustundan iborat matritsaosti k-tartibli matritsaosti deyiladi.
k-ordered minor	k-tartibli minori	k-tartibli matritsaosti determinanti A matritsaning k-tartibli minori deyiladi.

<b>Minor of <math>a_{ij}</math> element</b>	$a_{ij}$ elementning minori	Kvadrat matritsaning $i$ - qatori $j$ -ustunini o'chirishdan hosil bo'lgan matritsaosti determinanti $a_{ij}$ elementning minori deyiladi va $M_{ij}$ ko'rinishda belgilanadi.
---	-----------------------------	--